

Surxon tongi

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

2022-yil
7-fevral
(dushanba),
7-son
(17782)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan

surxontongi.uz

t.me/surxon_tongi

Mahalla raislari va ularning o'rinbosarlari hamda tumandagi iqtisodiy kompleks vakillariga "mahallabay" ishlash bo'yicha tashkil qilinayotgan yangi tizimning mazmun-mohiyati, unda mahallaning o'rni hamda mas'uliyati to'g'risida mufassal tushuntirish berildi.

— dedi viloyat hokimi. — Shundagina mahalla rivojlanadi. Fuqarolarimiz hayotida o'zgarish bo'ladi. O'ylaymanki, barchangiz mas'uliyat va vijdonan o'z mahallangizni rivojlantirish uchun mehnat qiliasiz. Suhbat davomida tumandagi "Qoqaydi" mahallasining hokim yordamchisi o'z tajriba

mahallamizning rivojlanishi, aholining farovon va baxtli yashashi uchun astoydil harakat qilaman. Qolaversa, mahalla ahli karam va lavlagi yetishtirish hadisini olgan, shuningdek, dehqonchilikka ixtisoslashgani uchun ham aholi tomorqalariga ekilgan lavlagini erta



VILOYAT HOKIMINING QARORI

Surxondaryo viloyatida 2022-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 25-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat mulkini ijara berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2009-yil 8-apreldagi 102-sonli qaroriga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Quyidagilar:
O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan 2021-yil 30-31-yanvarda kelishilgan 2022-yilda viloyatda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 1 kv. metr maydonga ijara to'lovining eng kam stavkalari 1-ildavga muvofiq;

2022-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun to'lanadigan ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan hududiy zonalar bo'yicha koeffitsiyentlari 2-ildavga muvofiq;

2022-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun to'lanadigan ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar va ijara to'lovlari hisoblash tartibi 3-ildavga muvofiq;

Radio, uyali peydjning aloqa antennalari (texnik uskunalari) o'rnatilganda foydalaniladigan maydon uchun ijara haqi to'lovlari hisoblanishi tartibi 4-ildavga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (Y.Namozov) qisqa muddatda viloyatdagi davlat tasarrufida bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini ijara berish yuzasidan avval tuzilgan ijara shartnomalariga mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.

3. Davlat mulkini balansda saqlovchi davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari foydalanilmasdan turgan davlat mulki to'g'risidagi ma'lumotlarni va ijara berilayotgan mol-mulkning tiklanish qiymati to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasiga o'z vaqtida, to'liq taqdim qilinishi ta'minlansin.

4. Davlat mulkini ijara shartnomasi tuzmasdan ijara berish, ijara shartnomasida ijara berilgan mulkning parametrlari va sonini ataylab noto'g'ri qayd etilganligi, natijada ijara to'lovining yashirilishiga olib kelganligi holati aniqlangan taqdirda, foydalanganlik davri uchun ijara to'lovini ikki barobar miqdorida belgilangan tartibda balansda saqlovchidan undirilishi va undirilgan summaning 50 (ellik) foizi tegishli jamg'armaga, 50 (ellik) foizi Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi ixtiyoriga o'tkazilishi belgilab qo'yilsin.

5. Viloyat hududida 2022-yilda davlat mulki bo'lgan binolar va xonalarda ijara asosida joylashgan byudjet tashkilotlari uchun ijara to'lovining "nol" stavkasi belgilansin.

6. Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, viloyat teleradiokompaniyasi, "Surxon tongi" va "Zarya Surxana" gazetalarini ta'hiriyatiga Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyati hududiy boshqarmasi hamda Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasining takliflari asosida viloyatdagi bo'sh turgan, ijara beriladigan davlat tasarrufidagi obyektlar ro'yxatini ommaviy axborot vositalari orqali bepul yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Viloyat hokimining 2021-yil 22-yanvardagi Q-45-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qaror "Surxon tongi" va "Zarya Surxana" gazetasida rasman e'lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari F.Mamanov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi
2022-yil 4-fevral

T.A.BOBOLOV
93-8-0-Q/22-sonli

Davomi 2-sahifada.

"MAHALLABAY" ISHLASAK



Seminar ishtirokchilari bilan viloyat hokimi To'ra Bobolov dildan suhbatlashdi.

NATIJA UCHUN VIJDONAN ISHLASH KERAK

Viloyat hokimi hokim yordamchilari bilan uchrashib, ularning maqsad va rejalarini bilib qiziqdi.

— Har bir hokim yordamchisi maqsadi va vazifasini tushunib, vijdonan ishlashi dardkor,

va malakasidan kelib chiqqan holda amalga oshirgan ishlari haqida ma'lumot berdi.

— "Qoqaydi" mahallasida hokim yordamchisi sifatida ish faoliyatini boshlaganimga ko'p vaqt bo'lmagan esa-da, bir oy davomida 8 ta ish o'rni yaratib, bitta oilaviy korxonani faoliyatini yo'lga qo'yishga erishdik, — deydi o'z so'zida Bekzod Raxmonov. — Kelgusida

bahorda yig'ib, qo'shni davlatlarga eksport qilishni rejalashtirganmiz.

YOSHLAR VA NURONIYLARNING O'RNINI

Viloyat hokimi amaliy seminar davomida nuroniylar va yoshlar bilan ham uchrashdi.

— Mahalla fuqarolariga tinchlik va osoyishtalikni qadrlab yashashni o'rgatib, mehr-oqibatli bo'lishga davlat etadigan Siz nuroniylarning

o'rningiz alohida, — dedi viloyat hokimi. — Mana shunday tushuncha va qarash bilan har bir oila va mahallada, tinchlik, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga erisha olamiz. Talabchan va tashabbuskor yoshlar bilan uchrashganimda ularning shijoatidan kuch-quvvat olaman. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. O'z tengdoshlariga ibrat bo'layotgan, jamiyatdagi yangilanishlar jarayonida faol ishtirok etayotgan har bir yoshni qo'llab-quvvatlayman.

Uchrashuv davomida nuroniylar yurtimiz osoyishtaligi, xalqimiz farovonligini so'rab duoga qo'l ochishdi. Ko'zlari g'ayrat-shijoat bilan yonib turgan yoshlarimiz, kelgusida Vatan ravnaqi, yurt kelajagi yo'lida

astoydil mehnat qilishni niyat qilishdi.

MUROJAAT HAL BO'LSA, ISHDA UNUM BO'LADI

"Mahallabay" ishlash tizimini yo'lga qo'yish "Bir mahalla bir mahsulot" tamoyili bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni o'rganish maqsadida tashkil etilgan amaliy seminar so'ngida viloyat hokimi aholi bilan uchrashib, ularning muammo va takliflarini tingladi.

Termiz davlat universitetida tahsil olayotgan qizining shartnoma pulini to'lash borasida amaliy yordam so'ragan O.Tojmurudovanning murojaati qabulning o'zidayoq ijobiy hal etildi.

— To'g'risini aytсам, ming bir xijolat va o'y bilan kelgandim, — deydi O.Tojmurudova. — Qizimni shartnoma pulini to'lashga imkonimiz yetmay qolgandi. Shu

sababli amaliy yordam so'ragandim. Baraka topsin, viloyat hokimi murojaatimni ijobiy hal qildi.

Uchrashuv davomida sog'ligini tiklashda yordam so'ragan Izzat Normatova tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, davolanishi uchun yo'llama berildi. Usmon Anorovga esa nogironlik aravachasi topshirildi.

— Qachonki xalq dardini tinglasak, ularning muammolarini ijobiy hal qilsak shundagina, ishimizda unum bo'ladi, — dedi viloyat hokimi. — Har doim yurtimizda inson qadri ulug'langan. Albatta, har bir murojaat ortida inson qadri muajassam. Murojaatning ijobiy yechim topishi esa bugunning muhim vazifalaridan sanaladi...

Nigina SHOYEVA

Denovlik Ivan Nefedov ana shunday hislarni ko'p bor o'z boshidan o'tkazgan.

30 yilda 102 litr qon topshirib, faxriy donorga aylangandi. To'g'ri, o'shanda bu qahramonligi uchun hech qanday mukofot va orden ko'ksiga taqilmagandir. Ammo yaqinlari, farzandlari va xalqimiz uchun bu ishi ibrat, eng yaxshi namuna bo'lib qoldi.

— Ko'ngilli sifatida qon topshirdim, — deydi TTA Termiz filiali davolash ishlari bo'yicha prorektori O'g'libibi Fayziyeva.

— O'zimni yengil his etdim. Jismoniy harakatlarimda ham, aqliy faoliyatimda

Xudoyqulov. — Doimiy qon topshirish foydalidir. Organizmdagi qon chiqib, yangi qon ishlab chiqishga signal boradi. Natijada hujayralar harakatda bo'lib, organizm yangilanadi, yasharadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, donorlar boshqalarga qaraganda ko'proq umr kechiradi. Donorlik infarkt va boshqa yurak-qon tomir kasalliklari kelib chiqishi xavfini bir necha bor kamaytiradi. Ko'ngilli qon topshirishga kelganlarning qon guruhi aniqlanadi, OIV, gepatit singari kasalliklar bo'yicha qon tahlillari amalga oshiriladi.



Be'araz donorlik — hayotbaxsh kuch!

Donorlik — savob. To'g'ri-da, sizning donorligingiz sabab kimdir hayotga qaytsa, qayta dunyoga kelgandek bo'lsa, quvonmaysizmi, ichingizdan eng katta ishni qilib qo'ygandek huzurni sezmaymaysizmi?

ham tetikman. Hech qanday nojo'ya ta'sir sezilmadi. Kasbim shifokor bo'lgani sababli qon donorligi bemor uchun ham, donor uchun ham foydali ekanligini anglagan holda tez-tez ko'ngilli sifatida qon topshiraman. Oliyoghimizdagi hamkasblarimiz, talaba yigit-qizlar bilan tashabbus ko'rsatib, qon topshirdik. Bizning be'araz yordamimiz sabab kimgadir nafimiz tegsa, xursandmiz. Ko'pchilik qon topshirish haqida o'ylasa, holsizlik, bosh aylanishi, ancha paytgacha o'zini tiklab ololmaslikni xayol qilishi mumkin. Aslida donorlik donor uchun ham koni foyda.

— 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan, o'zini sog'lom sanaydigan inson donorlik qilishi mumkin, — deydi Viloyat qon quyish markazi shifokori, tibbiyot fanlari nomzodi Boboqul

Xizmat ko'rsatish va tahlillar mutlaqo tekin. Tabiiy ofatlar, ko'ngilsizliklar va baxtsiz hodisalar sabab bemorga shoshilinch qon kerak bo'lib qoladi. Viloyat qon quyish markazi esa ana shunday vaziyatlarda kerakli guruhdagi qonni yetkazib beradi. Markazda doimo kerakli miqdordagi va guruhdagi qon bo'lishi uchun zaxira bo'lishi, ko'ngillilarning doimiy tashabbusi kerak.

Ana shu tashabbusni kuchaytirish, jamiyatni eng oliy qahramonlikka ergashtirish maqsadida O'zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati viloyat tashkiloti O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi huzuridagi O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari qo'llab-quvvatlash jamoati fondi tomonidan e'lon qilingan "Aholi salomatligini mustahkamlash

va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish" mavzusida donorlikni qo'llab-quvvatlash va targ'ib etish nominatsiyasida ishtirok etib, "Be'araz donorlik — hayotbaxsh kuch!" loyihasi uchun 70 million so'mlik grantga ega bo'ldi. Loyiha doirasida Viloyat qon quyish markazida topshirilgan qonni sifatli saqlash maqsadida konditsioner, muzlatkich hamda yuzdan ortiq qon tahlillarini tezlashtirilgan holda tekshirib, aniqlab beradigan sentrafuga apparati topshirildi. Qolaversa, viloyatdagi oltita oliy ta'lim muassasasidan 15 nafardan ko'ngilli talaba-yoshlar guruhi jamlanib, ular yordamida donorlik qilishga chorlovchi targ'ibot-tashviqot ishlari kuchaytirilishi rejalashtirilgan. Viloyat qon quyish markazida tashkil etilgan taqdimot tadbirida ana shu jihatlarga kengashib olindi.

— Qon donorligi jamiyat salomatligi uchun qilinadigan be'araz yordamdir, — deydi O'zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati viloyat tashkiloti raisi Rahimqul Akbarov. — Faoliyatim davomida juda ko'p davlatlarga xizmat safari sabab bordim. Aytish kerakki, ko'plab rivojlangan davlatlarda qon donorligi pullik. Aholi ma'lum haq evaziga qon topshiradi. Xalqimizning insonparvarligi, xayr ishlarga moyilligini mana shu donorlik misolida ham ko'rsa bo'ladi. Jamiyatimiz ham ana shunday savobli ishlarga bosh qo'shishni o'zining bosh maqsadi deb bilgan holda loyiha doirasida insonlarga yordam berishni o'yladik. Sayyora NORMURODOVA

Surxondaryo viloyat hokimining 2022-yil 4-fevraldagi 93-8-0-Q/22-son qaroriga 1-ilova

Surxondaryo viloyatida 2022-yil davomida davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 1 kv.metr maydonga ijara to'lovining eng kam stavkalari (so'mda)

T/r	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadlari	2022-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)	
		Termiz shahri	Tumanlar
Ishlab chiqarish			
1	Yoqilg'i ishlab chiqarish	10 400	7 600
2	Kimyoviy ishlab chiqarish	10 400	7 600
3	Neft-kimyoviy sanoati	10 400	7 600
4	Mashinasozlik	10 400	7 600
5	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati	10 400	7 600
6	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	10 400	7 600
7	Traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi	8 500	6 300
8	Qurilish, yo'l va kommunal muhandislik	8 500	6 300
9	Yengil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	10 400	6 300
10	Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish	10 400	7 600
11	Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati (tokarlik xizmati)	10 400	7 600
12	Mashina va uskunalarni ta'mirlash	10 400	7 600
13	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	10 400	7 600
O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati			
14	Yog'och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	10 400	7 600
15	Yog'ochni qayta ishlash sanoati	10 400	7 600
16	Sellyuloza-qog'oz mahsulotlari sanoati	10 400	7 600
17	Deraza va eshiklar, mebel ishlab chiqarish sanoati (yo'g'ochdan)	31 300	23 200
18	Qurilish materiallari sanoati	10 400	7 600
Yengil sanoat			
19	To'qimachilik sanoati	10 400	7 600
20	Tikuvchilik sanoati	10 400	7 600
21	Charm, mo'yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	10 400	7 600
22	Yengil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	10 400	7 600
Oziq-ovqat sanoati			
23	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	10 400	7 600
24	Go'sht va sut mahsulotlari sanoati	10 400	7 600
25	Baliq mahsulotlari sanoati	10 400	7 600
26	Tegirmonchilik sanoati	10 400	7 600
27	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	8 500	6 300
28	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	10 400	7 600
Sanoatning boshqa tarmoqlari			
29	Tibbiyot sanoati	10 400	7 600
30	Poligrafiya sanoati	25 400	21 800
31	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	12 700	9 300
32	Sanoatning boshqa turdagi xo'jalik boshqaruvlari	29 300	21 800
Qishloq xo'jaligi			
33	O'simlikshunoslik (shu jumladan, issiqxona xo'jaligi) 1 gektar yer maydoni uchun	4 172 400	3 094 900
34	Chorvachilik va parrandachilik	5 000	3 800
35	Baliqchilik (shu jumladan, sun'iy maydon)	4 172 400	3 094 900
36	1 gektar uchun	2 712 500	2 011 900
37	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	10 400	7 600
38	Veterinariya xizmatlari	10 400	7 600
39	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar	4 172 400	3 094 900
Transport va aloqa			
40	Yer ustida harakatlanuvchi umumfoydalanishdagi temir yo'l transporti	10 400	7 600
41	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	10 400	7 600
42	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	2 650	2 100
43	Avtomobilni yuvish	33 500	21 900
44	Avtomobilarga yonilg'i quyish	33 500	28 200
45	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari	18 800	14 100
46	Pochta aloqasi	10 400	7 600
47	Kuryerlik aloqasi	20 900	15 400
48	Elektr-simli aloqa	20 900	15 400
49	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	87 700	65 100
Qurilish			
50	Qurilish	10 400	7 600
51	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	10 400	7 600
52	Plastik deraza va eshiklar ishlab chiqarish	61 400	36 500
Savdo va umumiy ovqatlanish			
53	Ulgurji savdo	29 300	21 800
54	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	75 100	55 600
55	Chakana savdo	29 300	21 800
56	Umumiy ovqatlanish	29 300	21 800
57	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast food)	45 800	31 400
58	Kitob do'konlari	4 100	3 200
59	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo'jalik buyumlarini ijaraga berish joylari	29 300	21 800
60	Xalq xo'jaligi savdo-xarid mahsulotlari dalollik xizmatlari	45 800	34 000
61	Moddiy texnika ta'minoti va yetkazib berish	29 300	21 800
62	Ma'lumot-hisoblash xizmatlari	29 300	21 800
63	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko'rsatish	29 300	21 800

T/r	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadlari	2022-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)	
		Termiz shahri	Tumanlar
64	Ko'chmas mulklar bilan bog'liq munosabatlar	29 300	21 800
65	Reklama, ko'rgazmalar xizmatlari	29 300	21 800
66	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	29 300	21 800
67	Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari	52 200	38 600
68	Tahririyat va nashriyotlar	16 800	12 400
69	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	16 800	12 400
70	Turar joy-kommunal xo'jaliklari	16 800	12 400
71	Mehmonxona xo'jaligi	33 400	24 700
72	Umumiy yashash joylari	26 000	18 900
73	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari	16 800	12 400
74	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelyesi, poyabzal ta'mirlash ustaxonasi	25 200	18 900
75	Lombardlar	37 800	28 000
76	Hammomlar	50 300	37 300
77	Saunalar va basseynlar	100 200	74 400
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot			
78	Sog'liqni saqlash	20 900	15 400
79	Sayyohlik va dam olishni tashkil etish	20 900	15 400
80	Fitobar	14 500	10 700
81	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	33 400	24 700
82	Jismoniy tarbiya va sport	10 400	7 600
83	Dorixonalar	16 800	12 400
84	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do'konlari	35 200	19 600
85	Ijtimoiy-dorixonalar	14 900	10 000
Ta'lim			
86	Oliy va o'rta-maxsus ta'limi ma'lumotli kadrlarni tayyorlash (o'quv kurslari bilan)	16 800	12 400
87	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	13 100	10 100
88	Bolalar umumta'lim maktablari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	8 500	6 300
89	O'quv muassasalarida umumiy ovqatlanish	10 400	7 600
90	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	7 400	5 800
91	Madaniyat va sa'nat	29 300	21 800
92	Ko'rgazmalar	22 600	17 500
93	Maktabdan tashqari tarbiya	8 500	6 300
94	Madaniyat va dam olish bog'lari	20 900	15 400
95	Botanika bog'lari va zooparklar	20 900	15 400
96	Televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari	20 900	15 400
97	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	33 400	24 700
98	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	12 700	9 300
99	Avtomaktablar	18 600	11 000
Moliya-kredit faoliyati			
100	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	29 300	21 800
101	Auditorlik faoliyati	29 300	20 400
102	Bank faoliyati	29 300	21 800
Faoliyatning boshqa turlari			
103	Sug'urta va notarial xizmatlar	29 300	21 800
104	Sud va yuridik xizmat muassasalari	25 200	18 900
105	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	25 200	18 900
106	Jamoatchilik birlashmalari	8 500	6 100
107	Omborxonalar	29 300	21 800
108	Davlat tashkilotlariga ofis	12 700	9 300
109	Xususiy tashkilotlarga ofis	45 800	34 000
110	Arxiv xizmati	12 700	7 800
111	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (shu jumladan, vulkanizatsiya)	33 400	24 700
112	Laboratoriyalar	20 900	15 400
113	Turli xizmat turlari to'lovlari (paynet)	83 900	62 100
114	Madaniy meros obyektlari bino va inshootlarida joylashgan savdo do'konlari	45 800	34 000
115	Madaniy meros obyektlari bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shoxobchalari	40 100	29 800
116	Aviakassalar (shu jumladan, temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	45 800	34 000
117	Bankomatlar	418 100	310 100
118	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	29 300	18 900

Surxondaryo viloyat hokimining 2022-yil 4-fevraldagi 93-8-0-Q/22-son qaroriga 2-ilova

2022-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun to'lanadigan ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan hududiy zonalar koeffitsiyentlari (Kz)

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Zonalar	Hududiy zonalar koeffitsiyenti
1.	Termiz shahri	shahar hududi bo'yicha	2,7
2.	Denov tumani	tuman markazi	2,7
		boshqa hududlari	2,4
3.	Jarqo'rg'on tumani	tuman markazi	2,4
		boshqa hududlari	2,1
4.	Qumqo'rg'on tumani	tuman markazi	2,4
		boshqa hududlari	2,1
5.	Angor tumani	tuman markazi	2,4
		boshqa hududlari	2,1

* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 30-iyundagi 07/10-41-sonli yig'ilish bayonnomasining 11-bandiga asosan qishloq joylardagi QVP qoshida tashkil etilgan barcha mulkchilik shaklidagi dorixonaga muassasalariga ijara to'lovining "nol" stavkasi qo'llaniladi.

* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 22-noyabrda 02/1-74-sonli topshirig'iga asosan Ko'chmas davlat mulkidan foydalanganlik uchun to'lanadigan ijara to'lovining O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining savdo boshqarmalari tarkibida bo'lgan yopiq harbiy shaharlarda va uzoq bo'lgan garnizonlardagi bo'linmalariga nisbatan "nol" stavkada qo'llaniladi.

* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-oktabrdagi "Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi 834-sonli qaroriga asosan klasterlar hududida joylashgan ishlab chiqarish maydonlari, foydalanilmayotgan, shu jumladan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini hududida joylashgan davlat mulki O'zbekiston Yoshlar ittifoqi a'zosi bo'lgan yosh tadbirkorlarga, O'zbekiston Yoshlar ittifoqining shahar va tuman Kengashlarining iltimosiga ko'ra 5 (besh) yildan kam bo'lmagan muddatga ijara to'lovining "nol" stavkasi qo'llaniladi.

* O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining taklifiga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-avgustdagi 14/1-1959-sonli topshirig'iga asosan 2018-yildan Olimpiada o'yinlari g'olibi va sovrindorlariga davlat mulkidan foydalanganlik uchun hamda aholi zich joylashgan yer uchastkalari hududlarida sport faoliyatini saqlab qolish sharti bilan foydalanganda, ijara to'lovining "nol" stavkasi qo'llaniladi.

* Bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek, alohida ajratilgan maydonlarda (asfaltlangan yoki betonlashtirilgan hududlarda) radio, uyali va peydjning aloqa antennalari o'rnatilganda, foydalaniladigan maydon uchun ijara haqi to'lovlari bino va inshootlarga o'rnatilgan antennalar uchun belgilangan ijara stavkalari tortqich qoziqlarining umumiy parametri bo'yicha, inshoot va texnik hududlari qo'shilgan holda tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti qo'llanilgan holda hisoblanadi. Bunda, qurilish turi bo'yicha koeffitsiyenti (Kq) qo'llanilmaydi.

* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-avgustdagi 609-20-sonli topshirig'iga asosan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan beriladigan vazirlikning o'z faoliyatini xo'jalik yuritishning o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash prinsipi asosida amalga oshiradigan davlat unitar korxonalarini hamda boshqa bo'limlari tomonidan ijara shartnomasi asosida vaqtinchalik foydalanadigan bino, inshoot, asbob-uskunalar, mebel va boshqa mulklarga nisbatan ijara haqining "nol" stavkasi qo'llaniladi.

**(Davomi.
Boshlanishi 2-sahifada)**

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Zonalar	Hududiy zonalar koeffitsiyenti
6.	Sariosiyo tumani	tuman markazi	2,4
		boshqa hududlari	2,1
7.	Uzun tumani	tuman markazi	2,4
		boshqa hududlari	2,1
8.	Sherobod tumani	tuman markazi	2,4
		boshqa hududlari	2,1
9.	Termiz tumani	tuman markazi	2,4
		boshqa hududlari	2,1
10.	Boysun tumani	tuman markazi	2,4
		boshqa hududlari	2,1
11.	Sho'rchi tumani	tuman markazi	2,4
		boshqa hududlari	2,1
12.	Oltinsoy tumani	tuman markazi	2,2
		boshqa hududlari	1,9
13.	Muzrabot tumani	tuman markazi	2,4
		boshqa hududlari	2,1
14.	Qiziriq tumani	tuman markazi	2,2
		boshqa hududlari	1,9
15.	Bandixon tumani	tuman markazi	2,2
		boshqa hududlari	1,9

bo'yicha "Ijaraga oluvchi" va "Balans saqlovchi" (mulk egasi) o'rtasida asosiy ijara shartnomasiga qo'shimcha alohida shartnoma tuziladi va ushbu shartnoma bo'yicha "Ijaraga oluvchi" mazkur xarajatlarni to'lash majburiyatini oladi;

d) Oliy o'quv yurtlari, kollejlari, akademik litseylar, o'rta ta'lim maktablarining ichkarisida joylashgan talaba va o'quvchilarga xizmat ko'rsatuvchi oshxona, bufet va boshqa savdo, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalarini ijaraga olgan ijarachilar yozgi ta'til davrida (yilning iyun, iyul va avgust oylari) ijara to'lovi to'lashdan ozod qilinadi.

e) O'qitishga ixtisoslashgan nodavlat harbiy maktablar, avtomobil maktablari uchun ushbu nodavlat maktab talaba va o'quvchilarga xizmat ko'rsatuvchi o'quv xonalari, oshxona, bufet va boshqa savdo, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalariga ijara to'lovi o'quvchilarning yozgi ta'til davrida (yilning iyun, iyul va avgust oylari) hisoblanmaydi.

davrida (yilning iyun, iyul va avgust oylari) hisoblanmaydi.

Surxondaryo viloyat hokimining 2022-yil 4-fevraldagi 93-8-0-Q/22-son qaroriga 4-ilova

Radio, uyali peydjning aloqa antennalari (texnik uskunalari) o'rnatilganida foydalaniladigan maydon uchun 2022-yilda ijara haqi to'lovlarini hisoblanishi tartibi

1. Bino va inshootlarning yuqori qismi, cherdak, boloxona (shuningdek, davlat mulki bo'lgan inshootlarning yuqori qismi) qismlarida o'rnatilganda:

Ts = Es * Kz * (Kq + Kh + Ko).
Ts — bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovi tayanch stavkasi.
Es — bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo'yicha hisoblanadi).

Kz — hududiy zona koeffitsiyenti.
Kq — 0,9
Kh — 0
Ko — 1,1

2. Bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek, alohida ajratilgan maydonlarga (texnologik hududlar) o'rnatilganda:

Ts = Es * Kz * (Kq + Kh + Ko).
Ts — bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovi tayanch stavkasi.
Es — bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo'yicha hisoblanadi).

Kz — hududiy zona koeffitsiyenti.
Kq — 0
Kh — 0,2
Ko — 1,1

3. Bino va inshootlarning ichki qismida joylashgan xonalarga texnik uskunalari o'rnatilganda:

Ts = Es * Kz * (Kq + Kh + Ko).
Ts — bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovi tayanch stavkasi.
Es — bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo'yicha hisoblanadi).

Kz — hududiy zona koeffitsiyenti.
Kq — 1,2
Kh — 0
Ko — 1,1

4. Transport tizimlari va texnologik mashinalar kafedrasida:

— katta o'qituvchi (transport vositalari muhandisligi ta'lim

PO'LAT YO'LDA...

Temiryo'l tizimi bugungi kunda voha ahlining eng qulay va zaruriy transport vositasiga aylangan. Respublika hududi bo'ylab qon tomiridek tizilgan po'lat yo'llar aslida aholi uchun beqiyos imkoniyatdir. Ana shu imkoniyatdan yurtdoshlarimiz mamnun. Biroq...

Afsuski, ba'zi bir avtotransport vositalari haydovchilari tomonidan poyezdlar harakatiga tahdid soluvchi qoidabuzarliklar sodir etilayotgani esa imkoniyatga javoban qilinayotgan noshukrlik namunasidir. Yo'l harakati qoidasi ham fuqarolarimizning sog'ligini muhofaza qilish, favqulodda va tasodifiy hodisalardan himoyalash, harakatlanuvchi transport vositalari xavfsizligini to'laqonli ta'minlashga qaratilgani esa bunda o'z ahamiyatini yo'qotmoqda. Shuni unutmaslik kerakki, yo'l harakati qoidalari birgina shu soha xodimlari uchun emas, balki barcha fuqarolar uchun birdek tegishlidir.

Ayni paytda Termiz temir yo'l masofa korxonasi qarashli 233,7 km temir yo'l izlari mavjud bo'lib, Termiz-Qumqo'rg'on, Termiz-Surxonobod, Termiz-Amuzang, Termiz-Port yo'l nishlarida asosiy temir yo'llarda 43 ta temir yo'l kesishmasi mavjud. Ulardan 8 tasi qo'riqlanadigan temir yo'l kesishmasi bo'lib, shulardan 5 tasi UZP qurilmalari bilan jihozlangan.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ raisi hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vaziri o'rinbosari tomonidan tasdiqlangan

qo'shma tadbirlar rejasiga asosan, Termiz temir yo'l masofa korxonasi tasarrufidagi temir yo'l kesishmalarida qoidabuzarliklarni aniqlash, yo'l transport hodisalarining oldini olish bo'yicha Termiz temir yo'l masofa korxonasi hamda viloyat IIB YHXB boshqarmasi bilan hamkorlikda chora-tadbirlar ishlab chiqilib, bugungi kunda amaliy ishlar olib borilmoqda.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrda "Yo'l harakati qoidalari tasdiqlash to'g'risida" gi 370-sonli Qarorida haydovchilar tomonidan temir yo'l kesishmasiga yaqinlashganda qanday qoidalarga amal qilishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, mazkur Qoidalarning 119-bandiga ko'ra kesishma orqali harakatlanish taqiqlangan hollarda haydovchi to'xtash chizig'i, "To'xta" yo'l belgisi yoki svetoforga 2,5 metr masofa qolganda, ular bo'lmaganda shlagbaumga kamida 5 metr, shlagbaum bo'lmaganda esa birinchi temir yo'l iziga kamida 10 metr qolganda to'xtash kerak. Shunga qaramasdan qoidabuzar haydovchilar Termiz temir yo'l masofa korxonasi xodimlari tomonidan ham aniqlanmoqda.

2022-yil yanvar oyi holatiga: Termiz temir yo'l masofa korxonasi tasarrufidagi qo'riqlanadigan temir yo'l kesishmalarida temir yo'l qoidalarga amal qilmagan qoida-buzar avtotransport haydovchilari o'z vaqtida aniqlanib, viloyat IIB Yo'l harakati xavfsizligi

boshqarmasiga yuborildi. Yuqoridagi holatlarning oldini olish maqsadida haftaning har chorshanba kuni IIB Transportda XTB xodimlari bilan birgalikda maktab, mahalla va temir yo'l iziga yaqin joylarda istiqomat qilayotgan fuqarolarga temir yo'l qoidalarga rioya qilish bo'yicha 2022-yil yanvar oyi holatiga ko'ra besh marotaba tushuntirish ishlari olib borildi.

Temir yo'l izi himoya qismlariga chorva mollarini yaqin boqish holatlarini ham fuqarolarimiz tomonidan uchrab turibdi. Bu esa o'z navbatida baxtsiz hodisalarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Shu bois aholidan e'tiborli bo'lishlari so'raladi.

O.QURBANAZAROV,
"O'ztemiryo'lazorat" inspeksiyasi Qashqadaryo filiali boshlig'i,
N.SOATOV,
Termiz temir yo'l masofa korxonasi boshlig'i



TERMIZ MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI KAFEDRALARINING VAKANT (BO'SH) O'RINLARIGA PROFESSOR-O'QITUVCHILAR LAVOZIMLARIGA TANLOV E'LON QILADI

1. Aniq va tabiiy fanlar kafedrasida

— assistent (axborot texnologiyalari fani bo'yicha);
— assistent (matematika fani bo'yicha).

2. Kimyoviy va oziq-ovqat texnologiyasi kafedrasida

— assistent (oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishi bo'yicha);
— assistent (kimyoviy texnologiya yo'nalishi bo'yicha).

3. Kimyo va ekologiya kafedrasida

— katta o'qituvchi (kimyo fani bo'yicha);
— assistent (kimyo fani bo'yicha).

4. Transport tizimlari va texnologik mashinalar kafedrasida

— katta o'qituvchi (transport vositalari muhandisligi ta'lim

yo'nalishi bo'yicha);

— assistent (transport vositalari muhandisligi yo'nalishi bo'yicha);
— assistent (texnologik mashina va jihozlar (mashinasozlik va metallarga ishllov berish) yo'nalishi bo'yicha);
— assistent (texnologik mashina va jihozlar (to'qimachilik, yengil va paxta sanoati) yo'nalishi bo'yicha).

5. Elektr energetika kafedrasida

— assistent (elektr energetikasi yo'nalishi bo'yicha);
— assistent (texnologik jarayonlarni, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish yo'nalishi bo'yicha).

6. Transport inshootlari va avtomobil

tanlovda ishtirok etish uchun o'tgan muddat bo'yicha kafedrada hisobot beradi hamda sinov darslarini o'tkazadi.

Izoh: Katta o'qituvchi lavozimini egallash uchun tanlovda oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis), shuningdek, ilmiy daraja (shu jumladan, fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlardagi falsafa doktori (PhD) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) va ilmiy unvonga ega bo'lgan hamda bunday daraja, unvonga ega bo'lmagan, biroq o'qituvchilik, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish ishlari tajribasiga ega bo'lgan shaxslar ham qatnashishi mumkin. O'qituvchi (assistent) o'qituvchi-stajyor lavozimini egallash uchun tanlovda tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Manzil: Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi 288-a uy, 1-o'quv binosi, Kengash kotibi xonasi.
Tel.: 76 221-87-20

yo'llari kafedrasida

— assistent (yo'l muhandisligi yo'nalishi bo'yicha).

7. Umumkasbiy fanlar kafedrasida

— assistent (muhandislik va kompyuter grafikasi fani bo'yicha);
— assistent (mexanika fani bo'yicha).

8. O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida

— assistent (ingliz tili fani bo'yicha);
— assistent (rus tili fani bo'yicha).

9. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasida

— assistent (iqtisodiyot fani bo'yicha).

Tanlovda ishtirok etishni xohlovchilar institut direktori nomiga ariza, kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa, diplomlar va attestatlar nusxalari, ilmiy ishlar va ixtirolar ro'yxati, malaka oshirganlik to'g'risida hujjatlari nusxalarini topshiradi.

Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab 1 (bir) oy muddatda qabul qilinadi.
Eslatma: Mazkur institutda ishlovchi professor-o'qituvchilar

Surxondaryo viloyat hokimining 2022-yil 4-fevraldagi 93-8-0-Q/22-son qaroriga 3-ilova

2022-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanlik uchun to'lanadigan ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar va ijara to'lovlarini hisoblash tartibi

A. Ko'chmas mulkdan foydalanlik uchun to'lanadigan ijara to'lovini hisoblash tartibi:

Ko'chmas mulklarning holati va qurilish turiga qarab qo'llaniladigan koeffitsiyentlar:

1. Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyenti (Kk)

1.1. Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent Kq
— alohida turgan bino — 1,6
— binoning ichki qismidagi xonalar va taqab qurilgan — 1,2
— binoning ustki qismi, cherdak — 0,9
— yarim yerto'la, yerto'la — 0,6
— betonlashtirilgan (asfaltlangan) inshootlar — 1,6
— texnologik hududlar (maydon) da va betonlangan maydonda o'rnatilgan uyali aloqa antennalari uchun — 0,0

1.2. Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti Kh

— yer maydoni va binoning ichki o'tish yo'laklari mavjud bo'lganda — 0,7
— texnologik hududlar (maydon) da va betonlangan maydonda o'rnatilgan uyali aloqa antennalari uchun — 0,2
— binoning ichki qismi (bino ichidagi xonalar) va binoning ustki qismi uchun (uyali aloqa antennalari uchun) — 0,0

1.3. Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti Ko

— asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashganda — 1,2
— ikkinchi darajali avtotransport yo'llari bo'ylab joylashganda — 1,0
— radio, uyali aloqa va peydjning aloqa antennalari o'rnatilganda — 1,1

Bino va inshootlar bo'yicha ijara to'lovini hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi:

Ts = EsxKzx(Kq + Kh + Ko)
Bunda:
Ts — bir yilga bir kv.m uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi;

Es — 1-ilovaga muvofiq faoliyat turiga ko'ra bir yilga bir kv.m uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

Kz — hududiy zonalar koeffitsiyenti;

Kq — qurilish turi bo'yicha koeffitsiyenti;
Kh — tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti;
Ko — tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti;

B. Asosiy vositalarga ijara to'lovlarini hisoblash tartibi

Ijara to'lovini hisoblash quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

Kb x Sk x Ok
Asosiy vositalarga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar:

Kb — Qayta baholagandan keyingi qiymati
Sk — 0,30 — Soha koeffitsiyenti
Ok — Oshirish koeffitsiyenti

V. Avtotransport vositalariga ijara to'lovlarini hisoblash tartibi

Ijara to'lovini hisoblash quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

Kb x Sk x Ok
Avtotransport vositalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar:

Kb — Qayta baholagandan keyingi qiymati
Sk — 0,30 — Soha koeffitsiyenti
Ok — Oshirish koeffitsiyenti

Qo'shimcha izoh:

Ijaraga olingan davlat mulklaridan foydalanish hamda ijara to'lovi summalarini belgilash tartibi, bajariladigan qo'shimcha xarajatlarni, kommunal to'lovlarini va yer soliqlarini to'lash, ijaraga olingan davlat mulklarini kapital ta'mirlash, qo'shimchalar qilish ishlari uchun sarflangan xarajatlarni to'lash tartiblari to'g'risida;

a) bino-inshoot hamda asosiy vositalar va avtotransport vositalarini kapital ta'mirlash, qo'shimchalar kiritish ishlari bajarish uchun sarflangan mablag'lar to'g'risidagi tegishli hujjatlar "Balans saqlovchi" ga taqdim etilganda va tomonlarni roziligi bilan, ushbu sarflangan mablag'lar summasi ijara shartnomasi bo'yicha "Balans saqlovchi" ga to'lanishi lozim bo'lgan ijara to'lovi summasidan chegirib qolinishi mumkin. Ijara vaqtida olingan mahsulot va foyda "Ijaraga oluvchi" ning mulki hisoblanadi;

b) belgilangan ijara to'lovi summasiga yer solig'i, kommunal xarajatlarni (va boshqa turdagi xizmatlar) kiritilmagan bo'lib, ushbu xarajatlarni

Rashki yo'q erkakni tasavvur etish qiyin, rashki zo'rni esa oqlashga minglab bahonalar keltirish mumkin. Biroq dinda ham rashk erkaklik xususiyati deyilish barobarida mo'tadillik, me'yor xususida alohida ta'kidlanadi.

Dindan bexabarlar esa bu o'rinda har qanday xatti-harakatini rashk bilan berkitishga urinadi. Nodir (ism-shariflar o'zgartirilgan) Lobarni rashk qila boshlaganiga ko'p bo'lgan, o'zining rafiqasi deb bilishdan oldin ham uning rashki kuchli edi. Lobarni ham, o'zini ham o'ng'aysiz holga solardi.

Hattoki uning rashki shubhalarga qorishib ketdi. Mahallasida istiqomat qiladigan, ba'zan yo'li birligi bahonasida Lobar va uning singlisini ishga birga olib ketadigan hojatbaror ham Lobarning oshig'i degan gumon bilan kunda-kunora janjal qo'zirdi. Nodir mahallada gap tarqatganlar bilan kurashib, ayolining

RASHKI SABAB 7 YIL

sha'nini himoya etish o'rniga odamlarning gap-so'zlariga ishonib jufti halolini kuzatishga, uni haqiqatan ham, erkaklar bilan gaplashib yurishini isbotlashga kirishdi. Turli bahonalar bilan bir hafta davomida uni bildirmasdan kuzatib yurdi.

Ayolining singlisi hamda hamkasblari bilan oshxonada tushlik qilayotganligini, keyin esa ishga ketish yo'lida Lobarning kim bilandir telefonda uzoq gaplashganini jirm kuzatdi. Qo'lida esa uyidan atay olib chiqilgan pichoq...

Rashk qutqusi bilan Lobarning qo'lidagi telefonni tortib olgan Nodirning "Allo, kim bu?!" degan so'rog'iga hech kim javob bermadi. Karaxt bo'lib qolgan Lobar ham, uning don olishib yuradigan borligini isbotlagan yanglig' ko'zidan olov sachragan Nodir ham bir soniya

o'ziga kela olmadi. Nodir kim bilan gaplashganini aytmagan xotinidan yanada jahllandi va pichoqni unga sanchdi. Ikkinchi marta unga pichoqni yo'naltirgan ham ediki, atrofdagilar tutib qoldi.

Lobar qonga belandi, odamlar ko'makka shoshildi. Jarohat bitdi, ammo Nodir uchun sudning jazosi tayin. Endi u oilasidan uzoqda — ozodlikdan mahrum.

Lobar esa shikoyati yo'qligini takrorlamoqda, eriga xiyonat qilmaganiga ishonitirmoqda. Ammo har qanday huquqbuzarlikka belgilangan jazo bor.

Z.NARZIYEV,
Viloyat Jinoyat ishlari bo'yicha sudi sudyasi

TERMIZ MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI MARIYATI

2017-yilda Xalqobod transport va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji tomonidan Nomozova Gulasal Mamatmurod qiziga berilgan K 4755478 raqamli diplom va ilovasi yo'qolganligi MA'LUM QILINADI.



Chindan ekologiya — hayotim mazmuni edi. Sohaning oddiy xodimligidan rahbarligigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdim.

Vohani yashil makonga aylantiraman, degan maqsadda kimgadir talabchanlik yuzasidan qattiqroq gapirgandirman, lekin g'arazgo'ylik qilmaganman. Nopoklik hech qachon hayotimga aralashmagan! 9 yil kecha-kunduz dam olmasdan, shu Vatan uchun xizmat

obyektlari" loyiha korxonasini ochdim. Qurilish vazirligi litsenziyasi asosida ish boshlagan, loyihalash va smeta ishlarini bajaruvchi ushbu korxonaga 20 nafar yoshni ishga oldim. Shu yili Hindistonga sotganimiz 5 tonna asal foydasiga so'nggi rusumdagi kompyuter va texnikalar oldik. Ayni paytda ushbu ishbilanmonligim orqasidan 60 oilaning qozoni qaynayapti...

Ana shunday kunlarimda davlatimiz boshiga kelgan Prezident Shavkat Mirziyoyev ilk kunlaridayoq, men va men singari nohaq tuhmatlarga uchragan insonlar qalbida haqiqatan ham bu mamlakatda endi adolat qaror topishiga umid va ishonch uyg'otdi! Yurtimdagi o'zgarishlar biz singari qadrsizlangan

Bir ayol bor...

kiritti. E'tirof etish joizki, bu harakat — viloyat prokurori S. Turdiyevning adolati fikr yuritishi va biz kabi jabrlanuvchilarning o'tmishi va bugunidan yaxshi xabardorligi mahsulidir.

Aynan ushbu protest asosida Jinoyat ishlari bo'yicha Qashqadaryo viloyat sudi kassatsiya instansiyasining sudlov hay'ati jami 46 ta epizodda menga qo'yilgan ayblarni atroflicha ko'rib chiqdi va qilmishimda jinoyat tarkibi bo'lmagan sababli 2020-yil 26-fevraldagi ajrimi bilan menga nisbatan OQLOV AJRIMI chiqardi! **MEN OQLANDIM!** Reabilitatsiya qilinganim

TABIATNI ONAMDEK SEVAR EDIM

Nurxon ELMIRZAYEVA, jurnalist, ("XXI asr" gazetasidan olindi)

2001-2010-yillarda Surxondaryo viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi raisi bo'lib ishlagan Ro'zigul Safarovani nega qamashgandi?

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonda)
So'raganda hech o'ziga so'ramagan

Hikoyasining shu qismiga yetganida jim bo'lib qolgan suhbatdoshim hozir ozodlikda emas, go'yo qamoqxonada edi, mahkumalardek tushkun, g'arib. Bir piyola choy tutib, titrayotgan qo'llaridagi bir talay hujjatlar jamlangan papkani sekin olib varaqlayman. Jo'shib ishlab yurgan damlarida tuman va respublika matbuotlarida u kishi haqida bosilgan ocherk, maqola, she'rler e'tiborimni tortadi.

"Dashtda o'sgan gul", "Tabiat taqdiridir" ("Oila va jamiyat"), "Alpomishga ko'krak tutgan Kuntug' mishi" ("Ayol va zamon") nomli maqolalar hamda "Qo'ng'irotning ayollari" she'r (muallif Norto'ra Ergashev) da ham viloyat Ekologiya qo'mitasi raisining asl portreti — shijoati, kurashchanligi, tabiatga mehr-muhabbati, xullas, temir ayol obrazi yarq etib ko'zga tashlanadi.

She'rdagi mana bu ta'rifga qarang: "Aziz jonin huzurlarga o'ramagan, So'raganda hech o'ziga so'ramagan, Ko'zgularga ko'zin suzib qaramagan..."

— Rostdan ham, hech o'zimga so'ramaganman, — she'r ga ishora qilib yana tilga kiradi Ro'zigul opa. — Faqat eldoshlarimga so'rardim, yurtim gullasin, xalqim quvonsin derdim. Onam doim aytardi:



"Bolam, daladan beri kelmayсан, ish tugarmidi, sal dam ol, axir, ayolsan, onasan, qachon oyoq uzatasan?"

Javob berardimki: "E, onajon, ishlaganim — dam olganim, keng dala-dashtlarda kezsam, yuragim yanayam kengayib ketaveradi, ishlagim kelaveradi, shu kun botmasa-yu men ishlayversam. Kech bo'lganini sezmay qolaman. Bu yoqda tabiat qarovga muhtoj bo'lib turganida menga dam olish harom. Alaloqibat, shu ona tabiat bag'riga oladi-ku bizni, unga munosib bo'lay". Yana qo'shib qo'yardim tinchlantirmoqchi bo'lib: "Onajon, hali ko'rasiz, dam olsam, hammasini bitta qilib olaman, to'yib gaplashamiz o'shanda".

qilib, yetarlicha malaka, tajriba to'plagan paytimda tuhmat toshlari hayotimni chilparchin qildi. Inson hamma azobga chidar ekan, ammo qadring nohaq toptalsa, chidash qiyin...

2014-yil 8-may kuni Jinoyat ishlari bo'yicha Zangiota tuman sudining ajrimi bilan 3 yil-4 oyda ozodlikka chiqdim. Ish yo'q, "sudlangan", "qamalagan" degan tamg'a peshonamizga muhrlangani bois hech bir idora ishga olmaydi. Bekor turish esa menga yot. Ota-onam yashaydigan Muzrabot tumanidagi asalarichilarga yollanib, uning sirlarini o'rgana boshladim. Keyingi yili 20 ta asalar oila oldim, asalarichilik korxonam bo'ldi. 20 sotix joyga limon ekdim, oilamiz bilan ter to'kdik. Shu yili bir tonna limon sotdik, yarim tonna asal. Bu tadbirkorligim bilan nafaqat o'z oilam, balki yana 15 ta oilaning qozoni qaynashiga hissa qo'shdim.

Qishlog'imizda qurilish sohasini bitirgan, oliy ma'lumotli bo'lsa-da, Rossiyada ishlab keladigan yigitlar anchagina edi. Qarab turib, ularning shu yerda oilasi, ota-onasi yonida ishlab, bola-chaqasiga bosh bo'lishini istadim, chora izladim, ko'maklashgim keldi. Shu niyatda, 2015-yilda olgan daromadlarim evaziga "Uy-joy va suv

insonlar qadriini tiklab berdi.

Xalqimizning "Suv balosi, o't balosi, tuhmat balosidan asrasin", degan maqolidagi suv, o't balosini bir qadar his qilardim. Lekin tuhmatnikini tasavvurimga sig'dirolmagan ekanman. U joningni kuchli selday yemiruvchi, o'tdan battar kuydiruvchi balo ekan. Har qanday uzoq davom etgan tun ortidan ham tong otib, quyosh chiqadi, hamma chiroqlar o'chganda ham umid chiroqlari o'chmasligi kerak, degan hikmatli so'zni bilardim, yana yuragimning allaqaysi burchaklarida umid so'nmaganini ham his qilardim. Baribir o'zimni ishga qattiq urardimki, o'sha kunlarni unutay deb. Yillar davomida intilib ketolmaganim, isbot qilib berolmaganim, sudning bir parcha oqlov qog'ozini bir kuni qo'limga olganimda, muzday bo'lib qolgan yuragim adolatning taftini his qilib beixtiyor yig'lab yubordim. Bu safar, ming shukrki, bu ko'zyoshlar — adolat tantanasidan yuragimning tub-tubidan otilib chiqqan sevinch yoshlari edi!!!

Jinoyat ishlari bo'yicha Surxondaryo viloyat sudining menga nisbatan huv o'sha mash'um 2010-yil 21-dekabrda hukmiga shu viloyat prokuraturasi 2018-yil 18-oktyabrda kassatsiya tartibida protest

munosabati bilan barcha huquqlarim birin-ketin qonunan tiklanmoqda (moddiy, ma'naviy zararni qoplash, ishlaymay yurgan vaqtimni umumiy ish stajiga qo'shish va hokazo). Mana, 2021-yil 11-noyabr kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Termiz tumanlararo sudi O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2011-yili 28-yanvardagi buyrug'i (men bilan tuzilgan mehnat shartnomasi ayni buyruq bilan bekor qilingan edi)ni bekor qilish va meni Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi boshlig'i lavozimiga ishga tiklash haqida hal qiluv qarori chiqardi!



Shunday dorilomon damlarda kuch, quvvatim va yurak haroratim bilan aziz Vatanimning betakror tabiatini himoya qilish yo'lida jonimni ayamadan xizmat qilish oliy maqsadim va bunga men jon-jahdim bilan tayyorman.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosini ta'minlash yuzasidan viloyatimizda ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilyapti. Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etilib, o'tgan vaqt mobaynida samarali ishlar bajarildi.



Mustaqilligining 30 yilligi" esdalik nishoni bilan taqdirlandi. O'tgan yili fond tomonidan komissiya qaroriga asosan, "Yilning eng faol nodavlat notijorat tashkiloti" tanlovi e'lon qilindi. Hozirda viloyatda 2 ta nodavlat notijorat tashkilotlari uyi tashkil etilgan bo'lib, ularda "Ayol va zamon" NNT hamda "Rus" "Tojik", "Turkman" milliy madaniy markazlari

Allaning sehri

Alla... Bu so'z hamma uchun birdek tanish, laziz va suyuqlik...

Hammaning hayotida ijobiy o'rin egallagan yoki buyuk adib O'tkir Hoshimovning ta'бири bilan aytadigan bo'lsak: "Ehtimol, dunyoning bu chekkasida bir oqil odam aytgan fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa odam tushunmas, lekin dunyoning bu chekkasida bir ona aytgan allani dunyoning boshqa chekkasidagi go'dak albatta tushunadigan" ko'ngilga tutash xonish.

Xo'sh, buning sababi nima? Yosh go'dak tushungan, anglagan narsani qolganlar nega tushunmaydi? **Alla shu qadar sehirli!?**

Bu dunyoda alla eshitmagan inson bo'lmasa kerak. Masalan, men o'zimga aytgan allani eslay olmayman, biroq onamning yoshligimda singlimga aytgan allasi hatto meni ham uxlatishga qodir ekanligi esimda. Allada o'zgacha bir sehr mavjud. Biroq bu nima? Bola uchun uning kuyi so'zidan muhimroq,

chunki u hali so'zlarni anglamaydi. Hatto buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino: "Bolaning mijozini kuchaytirish uchun tebratish va allalab uxlatish kerak. Shu ikki narsa orqali bolaning tanasi bilan badantariyaga, ruhi bilan musiqaga iste'dodi oshadi" deb aytib o'tgan. Demak, alla ham bolaning ma'naviyatini, ham iste'dodini oshiradi. **Lekin u nima sababdan biz uchun aziz?**

Kuzatishlar natijasida shuni bilish mumkinki, ko'pchilik onalar allani o'zi to'qiydi, balki, uning ajib sehri esa shundadir. Onalar farzandidan kutayotgan orzu-umidlarini, tilaklarini qo'shiq qiladi.

Men shuni ayta olamanki, allalar onamiz tomonidan aytilgani uchun ham bizga tanish va azizdir.

Dildora ABDIMO'MINOVA, TerDU talabasi

Fondning maqsadi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini rivojlantirish hamda ularni jamiyat erkinlashuviga faol ishtirok etishiga ko'maklashish, Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan va mahalliy byudjetdan ajratiladigan mablag'larni jamlash, bu mablag'lar nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga, ijtimoiy, iqtisodiy, gumanitar masalalarni amalga oshirish uchun taqsimlanishini tashkil etish, ushbu tashkilotlarni moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularga huquqiy, tashkiliy yordam ko'rsatish bilan bog'liq loyihalar hamda dasturlarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashishdan iborat. Maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun jamoat fondi Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi jamoat komissiyasi rahbarligida faoliyat olib borayotir. Fond vakillari adliya boshqarmasi, O'zNNTMA viloyat bo'limi hamda hamkor tashkilotlar bilan birga NNTlar uchun seminar-treninglar, davra

NNTLAR "UYLI" BO'LDI

suhbatlari tashkil etib, grant loyihalarini tayyorlashda amaliy yordam bermoqda. O'tgan yil davomida Qiziriq, Angor, Termiz tumanlari hamda Termiz shahrida seminarlar o'tkazilib, yuzga yaqin nodavlat notijorat tashkilotlari vakillariga grant loyihalarini tayyorlash tartiblari tushuntirildi. Natijada Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi grant tanlovida ishtirok etish uchun 11 ta hamda ijtimoiy buyurtma tanlovlarida qatnashish uchun 3 ta loyiha yuborildi. Bu o'z samarasini berdi. 11 ta NNT Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi, 32 ta NNT viloyat jamoat fondi, 8 ta NNT O'zNNTMA huzuridagi jamoat fondi grant tanlovlari g'olibi bo'lishdi.

Jamoat fondi faoliyatini samarali tashkil etish uchun viloyat mahalliy byudjetidan o'tgan yil uchun 1 milliard 128 million so'mlik xarajat qilindi. Komissiya qarorlari asosida e'lon qilingan grant tanlovlari g'oliblariga 975 million 300 ming so'm

moliyalashtirildi.

Joriy yilning 1-yanvar holatida viloyatda 566 ta nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatyapti. O'tgan yili komissiya qarorlariga asosan, "Millatlararo totuvlik va barqarorlikni ta'minlashda ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish", "Yoshlarni qo'llab-quvvatlashda va aholi salomatligini mustahkamlashda NNTlar va fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish" kabi mavzularda 7 ta grant tanlovlari e'lon qilindi. Kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqqan komissiya tomonidan g'olib deb topilgan 32 ta NNTlarga 975 million 300 ming so'm moliyalashtirilib berildi. Buning natijasida NNTlar va milliy madaniy markazlarning moddiy ta'minoti yaxshilanib, samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur sharoitlar yaratildi, 101 nafar kishi maosh bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, Prezidentimizning "Nodavlat-notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni faoliyati

erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosi uchun viloyat hokimi tomonidan "Surxondaryo viloyatida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ular bilan ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Viloyat adliya boshqarmasi bilan hamkorlikda seminarlar tashkil etilib, yuzdan ortiq NNT vakillariga qonunlar talablar asosida mahorat darslari o'tkazildi.

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi e'lon qilgan grant tanlovlarida viloyatdagi 11 ta NNT g'olib bo'ldi va ular 450 million so'mlik grant mablag'lari yutib oldi. Viloyat hokimining tavsiyasiga ko'ra, NNT rahbarlaridan 20 nafari "O'zbekiston Respublikasi

va karlar jamiyati viloyat bo'linmasi faoliyat olib bormoqda. Viloyat hokimining qarori bilan Termiz shahridagi Islom Karimov nomli ko'chada joylashgan bino NNTlar uyi sifatida operativ boshqaruv huquqi bilan viloyat jamoat fondi ixtiyoriga berilgan. Ushbu binoda NNTlar jamoat fondi, O'zNNTMA viloyat bo'limi, Nogironlar jamiyati viloyat va Termiz shahri bo'limlari, xalqaro "Amir Temur" xayriya jamoat fondi viloyat muassasasi, Veterinar jangchi, faxriy va nogironlar Kengashi viloyat bo'limi, O'zbekiston chernobilchilari assotsiatsiyasi viloyat bo'limi, "Sog'lom avlod uchun" hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi viloyat hududiy filiali, "Bolalar va oilalarni qo'llab-quvvatlash assotsiatsiyasi" viloyat boshqaruvi, viloyat "Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi" faoliyat olib bormoqda. Binoda "Co-working markazi"ni tashkil qilish ham rejalashtirilgan. Amaldagi yilda faoliyatimizni yanada kengaytirish maqsadida NNTlar bilan hamkorlikni tobora kuchaytiraymiz.

Nuriddin JUMAYEV, xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi direktori

<p>SURXON TONGI va ЗАРЯ СУРХАНА gazetalari tahririyati</p>	<p>MUASSISLAR: Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi va viloyat hokimligi</p>	<p>TAHRIR HAY'ATI Jo'rabek TO'RAYEV (hay'at raisi) Abduraim CHORIYEV, Muhiddin ABDURAHMONOV, Dinara EGAMBERDIYEVA, Xurshid KARSHIYEV</p>	<p>Gazeta 2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.</p>	<p>BOSH MUHARRIR: Salohiddin NORQOBILOV</p> <p>MAS'UL MUHARRIR X. KARSHIYEV</p> <p>NAVATCHI MUHARRIR: A. MO'MINOVA</p>	<p><i>Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.</i></p> <p>Reklama va marketing bo'limi: 76 224-23-85</p> <p>TELEFONLAR: 76 224-22-92, 76 224-22-80</p>	<p>Qog'oz bichimi A-2. Nashr indeksi: 6500 Bosishga topshirildi—09:00 Bosildi—11:00 Adadi 16 947 nusxa. Buyurtma G-</p>	<p>MANZILIMIZ: Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy</p> <p>BOSMAXONA MANZILI: Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy</p>	<p>Gazeta "Surxon tongi" va "Заря Сурхана" gazetalarini tahririyati bosmaxonasida chop etildi.</p>
--	--	---	---	---	--	---	--	---